



Shaxnozaxon KOMOLOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, f.f.d
E-mail: komolova_shahnoza@mail.ru

Toshkent Agrar universiteti dotsenti, f.f.f.d. G.A.Tilovova taqrizi asosida

LINGUO-SOCIOCULTURAL ANALYSIS OF GERMAN AND UZBEK FOLK PROVERBS EXPRESSING WEALTH

Annotation

This article provides a linguo-sociocultural analysis of Uzbek and German proverbs related to wealth and poverty. The study explores how both nations perceive wealth and poverty in their moral, cultural, and social dimensions. The results show that in both cultures, wealth is often associated with hard work and honesty, while poverty is connected with patience, modesty, and spiritual values.

Keywords: linguacultural, proverbs, wealth, poverty, patience, honesty, mentality, values.

ЛИНГВОСОЦИОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ НЕМЕЦКИХ И УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ БОГАТСТВО

Аннотация

В данной статье проведён лингвосоциокультурный анализ узбекских и немецких народных пословиц, отражающих понятия богатства и бедности. В ходе исследования выявлены культурные и ментальные особенности восприятия материального достатка и нищеты в обеих культурах. Установлено, что в узбекской и немецкой традициях богатство связывается с трудолюбием и честностью, а бедность - с терпением, скромностью и духовными ценностями.

Ключевые слова: лингвокультурология, пословицы, богатство, бедность, терпение, честность, менталитет, ценности.

BOYLIK TUSHUNCHASINI IFODALOVCHI NEMIS VA O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING LINGVOSOTSIOMADANIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada boylik va kambag'allik tushunchalarini ifodalovchi o'zbek va nemis xalq maqollari lingvosotsiokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har ikki xalqning iqtisodiy, axloqiy va falsafiy qarashlarida boylikka hamda kambag'allikka nisbatan shakllangan stereotiplar, qadriyatlar tizimi hamda ularning til orqali ifodalanish xususiyatlari o'rganildi. Tahlil natijalari o'zbek va nemis madaniyatlarida boylikning mehnatsevarlik, halollik bilan, kambag'allikning esa sabr va qanoat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, xalq maqollari, boylik, kambag'allik, sabr, halollik, mentalitet, qadriyat.

Kirish. Xalq maqollari - millatning ko'p asrlik hayot tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini o'zida mujassam etgan ixcham, ammo mazmunan chuqur folklor janridir. Har bir xalq maqollarida uning tarixiy rivoji, mehnatga munosabati, axloqiy me'yorlari, ijtimoiy tuzilmasi va madaniy ustuvorliklari aks etadi. Maqollarning boshqa xalq hikmatlaridan farqli jihati ulardagi ibratomuz ma'no aks etishidir. Xalq maqollari doimo tarbiyaviy, ibratli fikr ifodalaydi. Xalq orasida donolar topib so'zlagan ibratli fikrlar ko'pchilikni tashkil etadi. Lekin ularning barchasi ham maqol maqomiga ega emas. Xalqning dono fikrlari maqol maqomiga erishishi uchun quyidagi xususiyatlarni o'zida jamlashi lozim:

maqolga aylanuvchi ibratli fikr xalqning uzoq yillar mobaynidagi

hayotiy tajribasida sinalgan bo'lishi;

hayotiy tajribada sinalgan har qanday fikr kishini ishonтира olishi;

maqolda ifodalangan ibratli fikr alohida shaxsgagina emas, balki

umuminsoniy xarakter kasb etishi;

sinalgan umuminsoniy fikr ixcham, mukammal badiiy shaklga ega bo'lishi shartdir [1].

Maqol maqomiga erishish uchun xalqning purma'no jumalari haqida yuqorida olimlarning bergan fikrlariga qo'shilgan holda, ularning har biriga to'xtalib o'tish o'rinli. Darhaqiqat, maqolga aylanuvchi har qanday ibratli fikr xalqning uzoq yillar hayotiy tajribasidan o'tib va sinalgandan

keyingina tinglovchini ta'sirlantira oladi. Xalqning bir necha yillik tajribasidan o'tgan ibratomuz fikrlar avvalo qaysidir bir donishmand shaxsga tegishli bo'ladi va u asta-sekin sayqallanib, xalqning ma'naviy mulkiga aylanadi.

Har bir xalqning og'zaki ijodi, xususan maqollarida, ularning hayot falsafasi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari o'z ifodasini topadi. Shunday ekan, dunyo tillarida mavjud xalq maqol va matallari xalqning javohiri hisoblanadi. Ma'lumki, xalqlar o'rtasidagi turli xil jihatlarga ko'ra farqli va o'xshash xususiyatlar mavjud. Nemis va o'zbek xalqlari ham shular jumlasidan. Ushbu farqli jihatlarning mavjudligiga qaramasdan, nemis va o'zbek xalq maqollari bu masalada turli tarixiy-madaniy sharoitlarda shakllangan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihatlarni ham ko'p, yani nemis va o'zbek xalq maqollari mavzu jihatidan deyarli bir-biriga o'xshash. Masalan, mehnatni qadrlash, halollikni boylikdan ustun qo'yish, sabr va qanoatni insoniy fazilat sifatida ulug'lash, yaxshilik va yomonlik, boylik va kambag'allik, do'st va dushmanlik, xasislik va sahiylik, mehnatsevarlik va yalqovlik kabilarni shular jumlasidan. Ikki xalqning leksik boyligi maqol va matallardagi va ularni qo'llanilishidagi yagona farq diniy mavzuga borib taqaladi. Lekin bunday maqol va matallar kamchilikni tashkil etadi.

Boylik va kambag'allik - jamiyat hayotining doimiy hamroh tushunchalari bo'lib, ular orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy tenglikka munosabati, halollik va mehnatsevarlik haqidagi fikrlari aks etadi. Mavzuni yoritishdan avval nemis va o'zbek tillarida

boylik tushunchasi qay tarzda ifodalanishiga oydinlik kiritish o'rinli. Nemis tilida boylik asosan Reichtum, Geld leksik birliklari orqali ifodalanadi:

Reichtum - tizimli, jamg'arilgan, iqtisodiy barqarorlikni anglatadi.

Geld - muomaladagi, real kuchga ega vosita sifatida talqin qilinadi.

Masalan: Geld regiert die Welt- Pul dunyoni boshqaradi; Reichtum kommt und geht- Boylik kelib ketguvchi.

Bu birliklar orqali nemis lingvomadaniyatida boylikning ratsional va funksional xususiyatga ega ekanini ko'rishimiz mumkin.

Boylik tushunchasi o'zbek tilida esa boylik, mol, dunyo moli, rizq kabi birliklar bilan ifodalanadi:

Mol - chorvachilikka oid qoramol; to'plangan moddiy buyum.

Rizq - diniy va metafizik tushuncha.

Masalan, Dunyo moli - dunyoda qoladi; Boylik - qo'lning kiri

Bu o'zbek madaniyatida boylikning faqat moddiy emas, balki ilohiy va vaqtinchalik hodisa sifatida qabul qilinishini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Har ikkala xalqning madaniyatida boylik va kambag'allikni ifoda etuvchi til birliklar talaygina. Quyida boylik va kambag'allik tushunchalar aks etgan maqol va matallar hamda ulardagi lingvosotsiomadaniy universal va differensial xususiyatlar ko'rib chiqiladi.

Nemis xalqida boylik ko'pincha intizom, tejamlilik va mehnat bilan bog'liq. Nemis madaniyatida "Fleiß" (mehnatsevarlik) asosiy qadriyat hisoblanadi. Quyida Horst va Annalies Beyerlarning Deutsche Sprichwortlexikon lug'atida nemis xalq maqollarida boylik konseptini qay tarzda ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Wer will reichen, darf nicht schleichen; Dicktun (Großtun) ist mein

Reichtum; Genügen ist Reichtum. Genügsamkeit ist mehr als Reichtum; Gesundheit (Zufriedenheit) ist der größte Reichtum; Großer Reichtum, wenig Schlaf; Liebe ist der größte Reichtum; Reichtum macht nicht reich (glücklich). Reichtum macht Sorgen; Dem Armen fehlt Brot, dem Reichen Appetit; Wer reich werden will, muß den Teufel zum Vetter haben; Wer weise ist, der ist mehr als reich. Wer zufrieden ist, ist reich.

Sh.Shomaqsudov o'zining "Ma'nolar maxzani" to'plamida boylik haqida bir nechta maqol va matal va ularning sinonimlarini keltirib o'tgan.

Bozordan bir boy chiqmaydi, bir gado; Boy-bir bo'ronlik, botir – bir o'qlik;

Boy-boyga boqar, suv soyga oqar, Boy borin bermas, yo'q qarab turmas; Boy buvamning oshi bor, ichi to'la toshi bor; Boy bo'lsang alak kiy, kambag'al bo'lsang ipak kiy; Boyga berasang bo'lmasin; Boyga siringni boy berma; Boyning bojasi ko'p, qulning xo'jasi ko'p; Boyning yerin ishlab qoldim, labginamni tishlab qoldim; Boyning mo'risi qiyshiq bo'lsa ham, tutuni to'g'ri; Boyning nomini gadoy chiqazadi

Bu maqollar xalqning moddiy ne'matlarga nisbatan ehtiyotkor, ma'naviy qadriyatlarga ustunlik beruvchi dunyoqarashini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har ikki xalqda boylik halol mehnat va sabr bilan bog'lanadi. O'zbeklarda ma'naviy qadriyatlar ustun bo'lsa, nemislarda iqtisodiy va intizomiy jihatlari muhim o'rinda turadi.

Nemis tilidagi Großer Reichtum, wenig Schlaf maqolini tahlil qiladigan

bo'lsak, nemis xalqi ushbu hikmati bilan kundalik hayotiy zarurlardan o'ttirib boylik yig'ish uchun ertayu-kech ishlar kerakligiga ishora qiladi. Lingvistik jihatdan to'rtta bo'lakdan tashkil topgan nemis xalq maqoli semantik nuqtai

nazardan boylik va tinchlik (xotirjamlik) o'rtasidagi qarama-qarshilikni ifodalaydi. Ma'no shuki, katta boylik ko'pincha o'zi bilan katta mas'uliyat, tashvish va stress olib keladi, bu esa uyquini kamaytiradi. Bu yerda "Schlaf" (uyqu) biologik holat emas, balki ruhiy tinchlik ramzi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Sotsiomadaniy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, nemis madaniyatida mehnatsevarlik va mas'uliyat yuqori qadrlanadi. Boylik – maqsad, lekin u osonlik bilan keladigan baxt sifatida talqin qilinmaydi. Ushbu maqolni o'zbek tildagi Boylik ko'p bo'lsa, tashvish ham ko'p bo'lar ekvivalenti mavjud.

Wer will reichen, darf nicht schleichen (Boy bo'lishni xohlasang harakat qil); Vom Wünschen wird man nicht reich- (Orzu qilgan bilan boy bo'lib qolmas kishi); Wer reich werden will in einem Jahr, der wird gehängt in sechs Monaten. (Tez boyigan – tez yiqilar.) Wer reich werden will, muß den Teufel zum Vetter haben. (Halol boylik sekin keladi) kabi nemis xalq maqollarida ham yuqoridagi kabi tahlilni ko'rishimiz mumkin. Boylik tushunchasi talqin etilgan shunga o'xshash maqollarda nemis xalqining mehnat va halollik orqali boylikka erishish mumkinligi tarannum etiladi. O'zbek xalq maqollari orasida xuddi shu kabi mehnatsevarlik ortidan topilgan boylikni madh etuvchi hikmatlarini ham uchratish mumkin. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik; Mehnatning ko'zini topgan boylikning o'zini topadi; Boylik ushoqdan yig'iladi kabilar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari o'zbek xalqida Bozordan bit boy chiqmaydi, bir gado; Boy borin bermas, yo'q qarab turmas kabi hikmatlari ham borki, ular orqali ayrim ziqna, xasis va baxil boylar ustidan zaharxanda bilan kuladi, ularning pastkashliklari ochiq-oydin ochib tashlanadi. Bekniki bejog'lik, Boyniki - tejog'lik; Boyning oshini yeyishga temirdan tish kerak; Boyning oshini boytevat qizg'anadi (boytevat- yungi o'sgan, ko'ppak it. Ayrim boylar eshigi oldiga shunday itlarni bog'lab qo'yishgan. Maqolda go'yo o'zini boyga sodiq qilib ko'rsatadigan, boyning ko'ziga yaxshi ko'rinmoq niyatida uning har bir narsasini puf-puflab avaylaydigan, hatto boy birovga in'om qilib yubormoqchi bo'lgan narsasini ham chiqarib berishga og'rinadigan laganbardor xizmatchi boytevat itga tashbih sifatida aytilgan.) [2] Tahlil natijalaridan shuni anglash mumkinki, har ikkala xalq madaniyatidagi universal xalq yuqoridagi keltirib o'tilgan xalq maqollari misolida mehnatsevarlik va halollik tushunchalarida birlashadi.

Wer reich werden will, muß den Teufel zum Vetter haben nemis maqolini Harom boylikning oxiri xorlik; Tez boyigan tez yiqilar kabi o'zbek xalq maqollariga muqobil sifatida keltirish mumkin. Semantik jihatdan har ikkala xalq maqollarida ham boylikka munosabat asosiy xususiyat hisoblanadi. Asosiy go'oya esa, boylik nopok yo'l bilan kelsa, oxir oqibat ma'naviy va ijtimoiy jihatdan salbiy natija berishi ta'riflangan. Lingvistik nuqtai nazardan nemis maqoli metaforik va obrazli bo'lib, "Teufel zum Vetter haben" – kinoyali, kuchli badiiy tasvir hisoblanadi. O'zbek maqolida esa qisqa va hukmli, sabab-oqibat aniq, ochiq ifodalangan. Nemis va o'zbek xalqining maqolida differensial xususiyat semantik jihatdan yuzaga chiqadi.

Bu farqni nemis tilida bilvosita tanqid, o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri nasihat ustunligida ko'rish mumkin.

Sotsiomadaniy jihatdan ham har ikkala xalq madaniyati o'rtasidagi farqli xususiyatlarni ko'rish mumkin. Ma'lumki, nemis madaniyatida xristian axloqi ta'siri kuchli. O'zbek xalqi madaniyatida islom axloqi va xalq donishmandligi asosiy manba hisoblanadi. Shunday ekan, nemis xalqi boylik tushunchasiga ehtiyotkorlik bilan baholasa, o'zbek xalqi esa, halol va harom kategoriyasi markaziy o'rinda turadi.

Lingvosotsiokulturologik tahlil shuni ko'rsatadiki, nemis va o'zbek maqollarida boylik konsepti umumiy bo'lsa-

da, uning madaniy mazmuni farqlidir. Nemis maqollarida boylik ratsional, mehnatga asoslangan va individual mas'uliyat bilan bog'liq tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek maqollarida esa boylik baraka, qanoat va ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'langan holda talqin etiladi. Bu farqlar har ikki xalqning tarixiy rivoji, diniy qarashlari va ijtimoiy tuzilmasi bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar. Nemis va o'zbek jamiyatlarida maqollar tarbiyaviy, axloqiy va kommunikativ vosita sifatida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat kundalik nutqda, balki yosh avlodni tarbiyalash, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini mustahkamlashda ham faol qo'llaniladi.

Maqollar orqali jamiyat a'zolariga "to'g'ri" va "noto'g'ri" xatti-harakatlar haqida aniq va qisqa xulosalar beriladi.

Nemis xalining maqollari jamiyatda boy bo'lib yashash uchun mehnat shaxsiy muvaffaqiyat va ijtimoiy barqarorlikning asosiy omili ekanini ko'rsatadi. Nemis madaniyatida vaqtning to'g'ri rejalashtirish, intizom va individual javobgarlik yuqori baholanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, nemis va o'zbek xalq maqollari turli diniy-madaniy muhitda shakllangan bo'lsa-da, ular boylikning axloqiy yo'l bilan qo'lga kiritilishi g'oyasida mushtarak. Bu esa boylik masalasida umuminsoniy qadriyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990. – 93 b.
2. Шомаксудов Ш. Маънолар маҳзани. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2001, - Б. 47.
3. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin: Erich Schmidt Verlag. 2010.
4. Dobrovol'skij D., & Piirainen E. Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives. Amsterdam: Elsevier. 2005.
5. Maslova V. A. Лингвокультурология. Москва: Академия. 2001.
6. Rahmonov S. O'zbek xalq maqollari va ularning lingvomadaniy xususiyatlari. Toshkent: Fan. 2015.
7. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. Oxford: Oxford University Press. 1997.